

## QONUNCHILIKDAGI MEROS HUQUQINING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

**Saypiyev Xusniddin Kamoloddinovich.**

*Chirchiq shahar adliya bo'lim boshlig'i*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada meros huquqining nazariy asoslari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksidagi normalari hamda amaliyotdagi dolzarb masalalari yoritilgan. Meros huquqining qonuniy va vasiyat asosida amalga oshirilish tartibi, majburiy ulush, meros qoldiruvchining qarz majburiyatlari, merosni rasmiylashtirishdagi tartib va muammolar tahlil qilinadi. Xorijiy tajriba bilan solishtirilib, milliy qonunchilik takomillashtirish yo'nalishlari haqida xulosa va takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** meros huquqi, qonuniy meros, vasiyatnoma, majburiy ulush, fuqarolik kodeksi, huquqiy tartibot.

Bugungi kunda jamiyatimizda fuqarolarga ko'plab imkoniyatlar yaratilayotganligi hamda ularning huquqlari ham keng ma'noda tushuntirib borilayotganligi bois fuqarolarning bir birlariga nisbatan o'zaro mol-mulklarni meros qilib qoldirishlari bilan bog'liq masalalar ham yanada kengaymoqdaligini bevosita guvohi bo'lmoqdamiz. Ushbu maqolaga kirishidan avval meros huquqiga tushuncha berib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Meros huquqi bu vafot etgan shaxsdan qoladigan mol-mulk uning vorislariga yoki boshqa shaxslarga, nisbatan ayrim hollarda mahalliy organlar va davlatga egalik qilish uchun o'tishi hisoblanadi. Merosga oid normalar vafot etgan kishidan qoladigan mol-mulkka egalik huquqi kimlarda vujudga kelishi va kimlar birinchi navbatda vorislik qilishlarini tartibga soladi. Meros odatda ikki xil shaklda, vasiyatnoma bo'yicha va qonun bo'yicha vorislarga o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida "Meros" tushunchasi keng yoritilgan. Meros – bu shaxs vafotidan keyin qolgan mulkiy huquq va majburiyatlar majmuidir. Fuqarolik kodeksining 1112-moddasiga ko'ra, meros ikki yo'l bilan o'tadi: **qonun asosida** va **vasiyatnoma asosida**. Har ikkala asosda ham meros oluvchi shaxslar, muddatlar, rasmiylashtirish tartiblari qonunchilikda belgilangan.<sup>1</sup>

Huquqshunos olimlar B.S.Antimonov va K.A.Grav meros huquqiy munosabatlarini ikki xil deb hisoblaydilar: birinchi hodisa (merosning ochilishi), ikkinchisi – merosxo'rlarning xohishiga ko'ra, merosni qabul qilish bilan vujudga keladi.<sup>2</sup> Ammo I.L. Korneeva esa meros huquqiy munosabatlarini merosni ochish va

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasibuf fuqarolik kodeksi 1112-moddasi

<sup>2</sup> Антимонов Б. С., Граве К. А. Советское наследственное право. М., 1995. С. 4650.

qabul qilish hamda meros olish bilan bog'liq boshqa harakatlarga oid meros huquqi normalari bilan tartibga solinadigan fuqarolik-mulk huquqiy munosabatlarning bir turi degan fikirda ish yuritadi<sup>3</sup>

Shuni aytib o'tish lozimki, meros huquqiy munosabatlarga beriladigan ta'riflar meros munosabatlarining yuzaga kelishini meros qoldiruvchining vafoti kabi yuridik fakt bilan bog'laydi. Ammo bir narsani unutmaslik lozimki, meros qoldiruvchining vafotidan ancha oldin vujudga keladigan va merosni merosxo'rlarga o'tkazadigan vasiyatnoma ham bor va yuqoridagi ta'riflar unchalik ham to'g'ri emas. Ya'ni meros munosabatlari meros qoldiruvchining o'limidan oldin ham vujudga kelishi mumkin. Misol uchun, ko'pgina davlatlar qonunchiligida vasiyatnoma yozma shaklda tuzilishi va guvoh yoki guvohlar ishtirokida guvohlantirilishi lozimligi belgilab qo'yilgan. Yoki bo'lmasam, O'zbekiston Fuqarolik kodeksida vasiyatnomalar notarius ishtirokida notarial tasdiqlanadi yoxud alohida hollarda notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar qo'llaniladi. Yopiq vasiyatnomalar ham notarius ishtirokida o'tkaziladi. Ushbu nuqtayi nazardan olib qaraganda vasiyatnomani tuzish ham yuridik fakt bo'lib, meros ochilgandan keyin uning mazmuniga ta'sir o'tkazadi. Shuningdek, meros huquqiy munosabatlari mutlaq xarakterga ham ega bo'lishi mumkin. Agarda vasiyatnoma mavjud bo'lmasa, meros qonun bo'yicha merosxo'rlarga o'tadi. Qonun bo'yicha merosxo'rlik masalasi ham har bir davlatda turlicha belgilangan. O'zbekiston qonunchiligiga binoan, agar meros qoldiruvchi o'limidan oldin o'z mol-mulkini vasiyat qilib qoldirmagan bo'lsa, undan qolgan meros mulklari qonun bo'yicha merosxo'rlariga o'tadi.

Meros huquqi bo'yicha oz bo'lsada ma'lumot berib o'tdik endi esa o'zi merosxo'rlar deganda kimlar nazarda tutilishi haqida ham to'xtalib o'tsak ya'ni Fuqarolik kodeksining 1118-moddasiga asosan, meros ochilgan vaqtda hayot bo'lgan fuqarolar, shuningdek meros qoldiruvchining hayotlik davrida homiladorlik paytida bo'lgan va meros ochilgandan keyin tirik tug'ilgan bolalari vasiyat va qonun bo'yicha merosxo'r bo'lishlari mumkin.

Meros ochilgan paytda tuzilib bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek davlat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham vasiyat bo'yicha merosxo'r bo'lishlari mumkin. Agar biridan keyin boshqasi meros olishga haqli bo'lgan shaxslar bir yigirma to'rt soat ichida vafot etgan bo'lsalar, ular bir vaqtda vafot etgan deb hisoblanadilar, meros ularning har biridan keyin ochiladi va ulardan har birining merosxo'rlari vorislikka chaqiriladilar.

Yuqorida takidlab o'tganimizdek meros ikki yo'l bilan o'tadi ya'ni qonuniy merosxo'rlarga birinchi navbatdagi qonuniy merosxo'rlar tarkibiga Meros

<sup>3</sup> Корнеева И. Л. Наследственное право Российской Федерации: учеб. для магистров / И.Л. Корнеева. - 3-е изд., перераб и доп. - М.: Юрайт, 2012. - С. 17.

qoldiruvchining bolalari (shu jumladan farzandlikka olingan bolalari), bevosita eri (xotini) va ota-onasi (farzandlikka oluvchilar) teng ulushlarda qonun bo'yicha birinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladilar. Meros qoldiruvchining vafotidan keyin tug'ilgan bolalari ham birinchi navbatdagi vorislar jumlasiga kiradilar. Ikkinchi darajadagi merosxo'rlar tarkibiga esa Meros qoldiruvchining tug'ishgan hamda ona (ota) bir ota (ona) boshqa aka-ukalari va opa-singillari, shuningdek uning ham ota, ham ona tarafdin bobosi va buvisi teng ulushlarda qonun bo'yicha ikkinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladilar. Shu jumladan uchunchi darajadagi merosxo'rlar qatoriga esa Meros qoldiruvchining tug'ishgan amakisi, tog'asi, ammasi va xolasi teng ulushlarda qonun bo'yicha uchunchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladilar.

Endi esa vasiyatnomaga to'xtaladigan bo'lsak, Vasiyatnoma — bu fuqaroning o'z vafotidan so'ng uning mol-mulkiga nisbatan kimlarga va qanday tartibda o'tishini belgilab beruvchi bir tomonlama huquqiy bitimidir. Vasiyat qilish meros qoldiruvchining o'z irodasi asosida amalga oshiriladi va u faqat vafotidan keyin kuchga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1133–1148-moddalari vasiyatnoma institutini tartibga soladi. Bevosita vasiyatnomaga qo'yiladigan bir qancha talablari mavjud ular quyidagilardan iborat bo'ladi:<sup>4</sup>

- Vasiyatnoma faqat huquqiy layoqatli shaxs tomonidan tuziladi (18 yoshga to'lgan, aqli raso);
- Vasiyatnoma yozma shaklda bo'lishi va notarial tasdiqlangan bo'lishi shart;
- Unda vasiyat qilinayotgan mulk, vasiyat oluvchi shaxs, vasiyat beruvchining imzosi va sanasi bo'lishi zarur;
- Vasiyatnoma maxfiy hujjat hisoblanadi; uni faqat meros qoldiruvchi yoki vafotidan so'ng notarius ochib e'lon qiladi.

Yuqorida qonuniy meros hamda vasiyatnomaga ozroq tarif berib o'tdik endi esa yanada tushunarliroq bo'lishi uchun sizlarga asosiy farqlarini jadval ko'rinishida taqdim etsak.

| № | Me'yoriy asos  | Qonuniy meros                          | Vasiyatnoma bo'yicha meros                    |
|---|----------------|----------------------------------------|-----------------------------------------------|
| 1 | Asos           | Fuqarolik kodeksiga ko'ra              | Vasiyatnoma asosida                           |
| 2 | Merosxo'rlar   | Qonunda belgilangan qarindoshlar       | Istalgan shaxs (qarindosh bo'lmasligi mumkin) |
| 3 | Tartib         | Navbat asosida (1-navbat, 2-navbat...) | Navbat yo'q, faqat vasiyatda ko'rsatilganlar  |
| 4 | Majburiy ulush | Yo'q                                   | Ha, ba'zi shaxslar majburiy ulush oladi       |

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasibuf fuqarolik kodeksi 1133-1148-moddalar

| № | Me'yoriy asos             | Qonuniy meros                                           | Vasiyatnoma bo'yicha meros                                    |
|---|---------------------------|---------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------|
| 5 | Rasmiylashtirish          | Vafotdan keyin meros notarius orqali rasmiylashtiriladi | Vasiyat hayot paytida yoziladi, notarial tasdiq talab etiladi |
| 6 | O'zgartirish/Bekor qilish | O'zgarmaydi (faqat voris voz kechsa)                    | Har doim bekor qilish yoki o'zgartirish mumkin                |
| 7 | Afzallik                  | Vasiyat bo'lmasa — qonuniy meros kuchga kiradi          | Vasiyat bo'lsa — qonuniy merosdan ustun turadi.               |

Nazariyaga ko'ra meros ulushi hamda majburiy ulush ham mavjud ya'ni **meros ulushi** -bu meros qoldiruvchining mol-mulkidan voris (merosxo'r)ga tegishli qismi, ya'ni qancha miqdorda va qanday nisbatan meros tegishini bildiradi. Meros ulushi **qonuniy meros** yoki **vasiyatnoma asosida** belgilanadi. Majburiy ulush esa bu vasiyatnoma mavjud bo'lsa ham, ayrim shaxslar qonun asosida **merosdan o'z ulushlarini olish huquqiga ega bo'lgan** holatdir. Vasiyat qilingan mulkning bir qismi ularga ajratilishi **majburiydir**.

Barchamizga ma'lumki huquq sohasi hamma joyda ham bir hil qo'llanilmaydi davlatlarga qarab turli huquq oilasiga mansubligi bilan ajralib turadi bunga misol qiladigan bo'lsak eng asosiy ikkta katta huquq oilasi bu **Romana-german** hamda **Anglo-sakson** huquqi mavjud va yana ikkta kichik huquq oilasi ham mavjud bular Musulmon huquqi va Odat huquqidir o'zi huquq oilasi deganda nima tushuniladi huquq oilasibu turli davlatlarning huquq tizimlarini o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra guruhlashga asoslangan nazariy tasnifdir. Har bir huquq oilasi tarixiy rivojlanish yo'li, manbalari, sud tizimi, qonun chiqarish tartibi bilan farqlanadi

Keling shu joyida boshqa mamlakatlarning qonunchiligidagi meros huquqiga ham ozroq yuzlanib o'tsak bilamizki qonunchilik sohasida va kodekslarimiz Rossiya Federatsiyasini bilan unchalik katta farqni tashkil etmaydi. AQSh qonunchiligi esa meros masalasiga yuqoridagi davlatlardan boshqacha yondashadi. AQShda har bir shtatlarning alohida qonunlari mavjud bo'lib, bir masala yuzasidan turli xil qoidalar kelib chiqadi. Lekin, aslini olganda, AQSh qonunchiligiga ko'ra vasiyat qiluvchilar bir qator rasmiyatchiliklardan xalos etilishgan. Misol uchun, hali ham ba'zi shtatlarda vasiyatnomani notarial tasdiqlash talablari mavjud bo'lsada, ko'plab shtatlarda bir vaqtning o'zida guvohlik berish va notarial tasdiqlash talablari bekor qilingan. Shuningdek, ko'pgina shtatlarda tirik qolgan turmush o'rtoqlarga katta majburiy ulush beriladi. Biroq, Amerika huquqiy an'analari tirik qolgan bola majburiy ulush olish huquqiga ega emas. Shu tariqa, Amerika huquqiy tizimi vafot etgan shaxsning farzandlaridan ko'ra turmush o'rtog'i haqida ko'proq qayg'uradi. Umumiy olib qaraganda, Amerika huquq tizimi juda kengdir. Shu sababli ham meros munosabatlari ko'proq ishonchga va amaliyotga asoslanadi.

Xalqaro doirada meros munosabatlarini to'liq bo'lmasa ham asosiy qoidalarini belgilab beruvchi hujjat yo'q. Ko'rib chiqilgan holatlardan ko'rinib turibdiki, meros masalasida

har bir davlat o'z milliy qonunchiligiga asoslanadi. Shu tufayli ham bu borada davlatlarning qonunchiligi bir-biridan jiddiy farq qilishi mumkin.

Endi yuqoridagi nazariy ma'lumotlarni inobatga olgan holda meros huquqini amalyotda qay tartibda amalga oshirilishi haqida asosiy tushunchalarni taqdim etsak.

| Bosqich / Jihat                                   | Tavsifi                                                                                                                 | Qonuniy asos                  |
|---------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------|
| <b>1. Meros ochilishi</b>                         | Meros qoldiruvchi vafot etgach, meros ochiladi.<br>Meros uni qoldirgan shaxsning oxirgi yashash joyida ochiladi.        | FK 1114-modda                 |
| <b>2. Merosga da'vo qilish</b>                    | Merosxo'rlar 6 oy ichida notariusga ariza topshirishi kerak. Qarindoshlik va mulkka doir hujjatlar ilova qilinadi.      | FK 1141–1142-moddalar         |
| <b>3. Vasiyatnoma mavjudligini aniqlash</b>       | Notarius vasiyatnoma mavjudligini va uning haqiqiylikini tekshiradi. Mavjud bo'lsa – unga amal qilinadi.                | FK 1118–1125-moddalar         |
| <b>4. Majburiy ulush mavjudligi</b>               | Mehnatga layoqatsiz qarindoshlar (ota-ona, farzand, turmush o'rtoq) majburiy ulush oladi – vasiyatda ko'rsatilmasa ham. | FK 1149–1151-moddalar         |
| <b>5. Meros ulushini aniqlash</b>                 | Agar vasiyatnoma yo'q bo'lsa – qonuniy tartibda navbat asosida teng ulushda taqsimlanadi.                               | FK 1141–1148-moddalar         |
| <b>6. Meros huquqi guvohnomasini olish</b>        | Notarius tomonidan har bir vorisga meros huquqi to'g'risida guvohnoma beriladi.                                         | FK 1163–1164-moddalar         |
| <b>7. Mulkni rasmiylashtirish</b>                 | Uy – kadastrda, mashina – YHXBda, pul – bankda ro'yxatdan o'tkaziladi. Merosxo'rlar o'z ulushini rasmiy egallaydi.      | Amaldagi tartibga ko'ra       |
| <b>8. Muddatdan o'tib murojaat qilish</b>         | 6 oy o'tib murojaat qilinsa – faqat sud orqali asoslangan holatda tiklanadi (kasallik, xorijda bo'lish va b.).          | FK 1155-modda                 |
| <b>9. Nizoli holatlarda sudga murojaat qilish</b> | Meros nizolari (ulush, haqlilik, vasiyat soxtaligi) bo'yicha fuqarolik sudi ko'rib chiqadi.                             | Fuqarolik protsessual kodeksi |

Yuqoridagi jadvalda meros huquqining sodda tartibdagi amaliy tushunchalarini ko'rishingiz mumkin ushbu amaliy va azariy bilimlardan kelib chiqan holda meros huquqini soddalashtirish hamda yanada takomillashtirish uchun bir necha takliflarni keltirib o'tsak takliflar shundan iboratki birinchi navbatta meros olish muddatini 6 oydan 12 oygacha uzaytirilishini bunga sabab meros oluvchilar chet davlatda bo'lishi yoki xabarsiz qolganligi sababli hamda o'zlariga bog'liq bo'lmaga sabablar tufayli muddat uzaytirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ikkinchi taklif esa vorislar uchun avtomatik xabardor qilish mexanizmini joriy qilish bunga sabab esa meros ochilgach, barcha ehtimoliy vorislar davlat reyestrlari orqali avtomatik ogohlantirilsa shunda hech bir merosxo'r nazardan chetda qolmas edi. Uchinchi taklif bugungi kunda juda ko'plab merosxo'rlarning e'tiborsizligi va loqaytsizligi natijasida notariusga kech murojaat

qilishi va huquqiy bilimi kamligi sababli o'ziga tegishli bo'lgan ulushidan mahrum bo'layotganligini hech birimizga sir emas aslida va bunday xolat esa huquqiy yordam tizimini kuchaytirishni taqozo etadi. To'rtinchi **sud tizimidagi ortiqcha yuklamani** kamaytirish uchun **yarashtiruv** va **onlayn hujjatlashtirish** tizimlari joriy etilishi zarur. **Chet elda yashovchi O'zbekiston fuqarolari** uchun **xalqaro huquqiy yordam** va diplomatik kanallar orqali merosga ega chiqish tartibi yengillashtirilishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, meros huquqining nazariy asoslari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksidagi normalar, Oliy Sud Plenum qarorlari, shuningdek, amaliyotdagi muammolarni tahlil qiladi. Meros huquqi, shaxsning vafotidan keyin mol-mulkni vorislarga o'tkazish tartibini belgilaydi va qonuniy hamda vasiyatnoma asosida amalga oshiriladi. Meros huquqi ikki asosda, ya'ni qonuniy va vasiyatnoma asosida taqdim etiladi. Fuqarolik kodeksidagi normalarga muvofiq, meros oluvchilar va ularning huquqlari aniq belgilangan. Vasiyatnoma esa meros qoldiruvchining irodasiga ko'ra tuziladi va o'z irodasini ifodalaydi. Umuman olganda, maqola meros huquqining dolzarb masalalari va ularni hal etish yo'nalishlari haqida muhim ma'lumotlar taqdim etadi.

#### Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. —T.: Adolat. 2021 yil.
2. Антимонов Б. С., Граве К. А. Советское наследственное право. М., 1995. С. 4650
3. Корнеева И. Л. Наследственное право Российской Федерации: учеб. для магистров / И.Л. Корнеева. — 3-е изд., перераб и доп. — М.: Юрайт, 2012. — С. 17.